

CHIZMACHILIK DARSLARIDA AMALIY SAN'AT ELEMENTLARIDAN FOYDALANIB TARKIBIDA TUTASHMA ELEMENTLAR QATNASHGAN NAQSH NAMUNALARINI CHIZISH

Toshpulatov Faxriddin Urolovich

TerDUPI o'qituvchisi

toshpulatov@terdipi.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6321246>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 14 – fevral 2022

Ma'qullandi: 19 – fevral 2022

Chop etildi: 24 – fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

Chizmachilik, amaliy san'at, uzviylik, tutashma, naqsh, islurma naqish, muhandislik, Girix, aylana va to'g'ri chiziq, me'moriy yodgorliklar.

Chizma bu maxsus chizma asboblari yordamida ma'lum qonun va qoidalar asosida bajarilgan tasvir bo'lib, u bizga buyum haqida, ya'ni uning ichki va tashqi tuzilishlari, o'lchamlari bo'yicha to'la ma'lumot beradigan hujjatdir.

Hozirgi zamon ishlab chiqarishda chizma alohida o'rinn tutadi. Chunki har kuni zavodlarimizda turli stanoklar, mashina va mexanizmlar, uy-ro'zg'or buyumlari va ko'plab boshqa narsalar tayyorlanadi. Ularni esa chizmalarsiz yasab bo'lmaydi. Shu jumladan amaliy san'at elimintlaridan gerix va islurma naqish turlari ham bunga misol bula oladi.

Naqshlardan ayrim dekorativ ishlarda, arxitektura elementlarini bezashda, ganchkorlik, kandakorlik, kashtachilik, zardo'zlik, zargarlik, gilam to'qish va kigiz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chizmachilik, amaliy san'at va muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda uzviylik didaktik tamoyil bo'lib, u ta'lim mazmunini ifodalovchi o'quv rejalar, dastur, darsliklarda o'quv materiallarining bir-biri bilan mantiqiy bog'liq bo'lishini, avval o'zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda keyingilarini o'zlashtirishga tayyorlashni, bo'lajak mutaxassislarda ta'limning har bir bosqichida ma'lum darajada bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirilishi xaqida so'z boradi.

bosish, kulolchilik, inkuristatsiya va xalq amaliy san'atining boshqa turlarida foydalaniadi.

Naqsh arabcha "tasvir", "gul", ya'ni bezak degan ma'noni anglatadi. Naqshlarning turlari juda ko'p bo'lib, ularning o'z nomi va mazmuni bo'ladi.

Ular mazmuniga ko'ra o'simliksimon, gulliy, ramziy, geometrik va boshqa turlarga bo'linadi.

Naqshlanadigan buyumning shakliga hamda qanday maqsadda qo'llanishiga qarab naqshlar tanlanadi va o'ziga xos nomlanadi.

O'zbek xalq ustalari naqshning quyidagi uch turidan foydalananilar:

- 1) Islima (egri chiziqli o'simliksimon elementlardan iborat naqsh).

2) Girix - asosan geometrik yasashlardan iborat.

3) Murakkab naqsh - girix shakllari va o'simlik elementlarini qo'shib ishlatalishi natijasidan hosil bo'ladi.

Islima (islimi) - ya'ni o'simliksimon naqshlar tabiatan barg, gul, novda va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklidir.

Masalan, ustalar gulni stillashtirib olishda uning go'zalligini qaysi holatda (ustidan, yonidan yoki tagidan) ko'rinishida tasvirlashni izlab topadilar. Buning uchun ular tabiatdagi gul, barg, novda, g'uncha, kabutar, tovus va boshqalarning tuzilishini, o'sish qonun-qoidalalarini, ko'rinishini sinchiklab o'rganishadi.


Shundan so'nggina ulardan turli naqsh kompozitsiyalari ishlash uchun har xil elementlarni tutashma eliminatlardan foydalanib stillashtirib oladilar. Bunda ularning obrazi chizmalari tutashma eliminatlari stillashtirilgandan keyin ham

saqlanishi shart, ya'ni yaratilgan naqsh orqali narsaning aslini ko'z oldimizga keltira olishimiz lozim.

Girix - geometrik naqsh o'simliksimon naqshlardan farq qilgan holda, tabiatdagi barg, gul va boshqa narsalarning umumiy shakli olinib, geometric shakliga keltirilganligidir.

Tutashmalar - Ko'pincha detallar va boshqa buyumlarda, ularni tashkil qiluvchi sirtlar o'zaro silliq, ravon tutashgan bo'ladi. Lekin detal va buyumlarning chizmalarini bajarganda ularning konturlari chiziladi. Shu sababdan sirtlar orasidagi birlashmalarni chiziqlar orasidagi tutashmalar sifatida ko'ramiz (1-shakl). *Tutashma deb bir chiziqning ikkinchi bir chiziqqa bevosita yoki yoy vositasida silliq, ravon o'tishiga aytildi.*

Oddiy naqsh namunalarini Tutashma elementlarini qo'lda chizish. Amaliy mashg'ulotdan maqsad, kompozitsiya haqida elementar tushuncha berish.



1-shakl

vaqtning o'zida murakkab. Aynan yechim oddiyligi chiroyli yasashlarni bajarish kalitini beradi. Sxema qanchalik sodda va mantiqli bo'lsa, u shunchalik samarali va boy bo'ladi. Islimi naqsh yasashning



murakkabligi shundan iboratki, bunda kompozitsiya va uning butun estetik qiymati tutashmalarni ketma-ket bajarish bilan yaratilmasdan, badiiy saviyasiga juda ko'p bog'liq.

Hozirgacha saqlanib kelingan me'moriy yodgorliklar va yangidan bunyod



qilinayotgan milliy uslubdagi turli inshoot va yodgorliklarda girihsalar bilan bir qatorda islami naqshlar ham keng qo'llaniladi hamda ular o'zlarining nafisligi bilan

girihsardan qolishmaydilar. Islimi naqshlar to'g'risida batafsil to'xtalib o'tirmasdan ularga ayrim misollar keltiramiz (2-shakl).





a)

b)

2-shakl. Islimi naqsh (a) namunasi va tutashmalardan foydalanib islimi naqsh elementini (b) hosil qilish

Tutashmalar qo'llanilib tayyorlangan buyumlar foydalanish uchun qulayligi, tuzilishining mukammalligi, ergonomik talablarga mos kelishi va chiroyliligi bilan

ajralib turadi. Tutashmalarning xalq amaliy san'ati misolida qo'llanilishiga 3-shaklda namuna keltirilgan.




3-shakl. Milliy uy-ro'zg'or buyumlari konturini tutashmalardan foydalanishda talabaga quyidagi tartibda ishlash tavsiya qilinadi:

1. Avval barcha yasashlar tanlangan masshtab bo'yicha F3 formatli qog'oz listida T va 2T markali qalamda ingichka chiziqlarda bajariladi.

2. chiziq turlarini hisobga olgan holda, yumshoq M yoki 2M markali qalamda ustidan yurgizib, tayyorlanadi. Agar chizma tushlanadigan bo'lsa, yumshoq qalam bilan yurgizib chiqmasdan, to'g'ridan-to'g'ri tush bilan ishslash ham mumkin.

3. Tayyorlangan ishni baholashda tutashmalarni aniq bajarilgani, chizmani qog'oz listida optimal joylashtirilishi, chiziq turlariga rioya qilinishi, chizma yozuvlarining standart shriftlarda to'g'ri yozilishi, strelka va o'lchamlarni standartlar bo'yicha qo'yilishi va qog'oz listini toza saqlanishi kabilar e'tiborga olinadi.(4-shakl)



4-shakl

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshpulatov F. U., Norqochqorov R. E. O., Maxmudova X. N. Q. XALQ AMALIY SAN'ATINING CHIZMACHILIK FANI BILAN BOG'LQLIGI //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 2.
2. J.Y.Yodgorov, T.R. Sobirov, N.J.Yodgorov Geometrik va Proyekcion chizmachilik Toshkent "Yangi asr avlod" 2008-yil.
3. Tashimov, N. E., & Toshpulatov, F. U. (2018). Activating Students in Building Intersection Line by Quadratic Transformations Method. www.auris-verlag.de.
4. Toshpulatov F. USE OF GEOMETRIC PATTERNS AND THEIR TYPES FROM ELIMINATIONS OF DRAWING AND APPLIED ART IN ARCHITECTURAL FACILITIES //Физико-технологического образования. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
5. Toshpo'Latov F. U. et al. Bolalarni o'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o'yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.



EURASIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES

Innovative Academy Research Support Center

www.in-academy.uz

6. Uralovich, Toshpulatov Fakhriddin. "Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies." *International Engineering Journal For Research & Development* 6 (2021): 3-3.
7. Toshpulatov F. USE OF GEOMETRIC PATTERNS AND THEIR TYPES FROM ELIMINATIONS OF DRAWING AND APPLIED ART IN ARCHITECTURAL FACILITIES //Физико-технологического образования. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
8. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Т. 6. – С. 3-3.